

**“Olmaliq KMK” AJ xodimlari  
tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy  
xatti-harakatlar va xizmatdagi odob-ahloq  
qoidalarini buzish holatlari yuzasidan xizmat  
tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi  
REGLAMENT**

## **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Reglament “Olmaliq KMK” AJ ijro apparati hamda tarkibiy bo‘linmalar (keyingi o‘rinlarda – Kombinat) xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi yoxud Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki normativ hujjatlari talablarini buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvi (keyingi o‘rinlarda – Xizmat tekshiruvi) o‘tkazish tartibini belgilaydigan asosiy ichki normativ hujjat hisoblanadi.

2. Mazkur Reglament quyidagi maqsadlarda ishlab chiqilgan:

Kombinatdada Xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tartibida yagona yondashuvni belgilash;

Xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish jarayoni va natijalarini hujjatlashtirishning talab va qoidalarini belgilash;

Kombinatda huquqbuzarliklar sodir etish, uning manfaatlariga ziyon yetkazishga olib keladigan sabab va shartlarni aniqlash va bartaraf qilish;

Kombinatda qabul qilingan ichki normativ hujjatlar va nazorat tartib-taomillaridagi kamchiliklarni aniqlash hamda kelgusida bunday huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ularni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish;

Kombinat xodimlarining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish xavf-xatarlarini kamaytirish.

3. Xizmat tekshiruvini o‘tkazishda ishtirok etish huquqi va vakolatiga ega bo‘lgan Kombinat xodimlari zimmasiga ushbu Reglament bilan o‘rnatilgan talablarga rioya qilinishi uchun shaxsiy mas‘uliyat va javobgarlik yuklatiladi.

4. Kombinatdagi Xizmat tekshiruvlari quyidagi tamoyillar asosida o‘tkaziladi:

qonuniylik;

Kombinat xodimlarining huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash va himoya qilish;

Xizmat tekshiruvini o‘tkazish davomida olingan axborot va materiallarning maxfiyligini ta‘minlash kafolati;

Kombinatning vakolatli xodimlari tomonidan Xizmat tekshiruvlarini o‘tkazishda, qonuniylik, shaffoflik, halollik, kollegiallik, betaraflik va xolislik qoidalariga qat‘iy rioya etish;

Xizmat tekshiruvi obekti hisoblangan xodimning aybsizlik prezumpsiyasini ta‘minlash.

## **II. Xizmat tekshiruvini tayinlash**

5. Xizmat tekshiruvlari Kombinat xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga oid

ichki normativ hujjatlarining buzilganligi to'g'risida asosli ma'lumotlar mavjud bo'lganda tayinlanadi.

6. Bunday ma'lumotlar quyidagi manbalardan olinishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Oliy Majlis palatalari, Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi, Kuzatuv kengashi hamda boshqa vakolatli davlat boshqaruv organlarining topshiriqlari;

Kombinat xodimlarining yozma yoxud og'zaki shaklda bevosita rahbariga yoxud boshqa vakolatli shaxsga bergan ma'lumoti asosida;

jismoniy va yuridik shaxslarning Kombinatning maxsus aloqa kanallariga yuborgan xabarlari, shu jumladan, anonim murojaatlar asosida;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari asosida;

ommaviy axborot vositalaridagi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar asosida;

o'tkazilgan so'rovnoma, shu jumladan, ijtimoiy va statistik tadqiqotlar natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar asosida;

ichki audit va moliyaviy nazorat bo'linmalari, shuningdek, davlat moliyaviy nazorat organlari va O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosalari asosida;

Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi (keyingi o'rinlarda – **Komplaens-nazorat xizmati**) tomonidan korrupsiyaga qarshi ichki normativ hujjatlarning talablari monitoringi va ularga rioya qilish ustidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarining natijalari asosida;

Boshqa aloqa kanallari yoxud manbalar orqali kelib tushgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlar asosida Boshqaruv raisining tegishli buyrug'iga muvofiq tayinlanadi.

7. Kombinatda quyidagilar Xizmat tekshiruvini o'tkazish tashabbusini kiritish huquqiga ega:

Boshqaruv raisi hamda boshqaruv a'zolari;

Ijro apparati bo'linmasining yoxud tarkibiy bo'linmaning birinchi rahbari;

“Olmaliq KMK” AJning Odob-ahloq komissiyasi;

Komplaens-nazorat xizmati (Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi);

Kombinatning Ichki audit hamda Moliyaviy nazoratga javobgar tarkibiy bo'linmasining birinchi rahbari;

Kombinat Yuridik departamenti rahbari;

Kombinat ijro apparati Xodimlar bilan ishlash xizmatining rahbari.

8. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda huquqbuzarliklar to'g'risida mazkur Reglamentning 6-bandida ko'rsatilgan manbalardan kelib tushgan har qanday ma'lumotga nisbatan Komplaens-nazorat xizmati, xizmat tekshiruvi o'tkazish uchun yetarli asos va ma'lumotlar mavjudligi, shuningdek, kelib tushgan ma'lumotning Kombinat xodimlariga aloqasi bor-yo'qligini (relevant xabar ekanligini) aniqlash nuqtai nazaridan dastlabki o'rganish va tahlil qilish ishlarini amalga oshiradi.

9. Bunda ustidan Xizmat tekshiruvi o'tkazilishi mumkin bo'lgan yoxud manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan xodimlarni dastlabki o'rganish jarayoniga jalb qilish qat'iyon ta'qiqlanadi.

10. Dastlabki o'rganish tegishli ma'lumot kelib tushgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkaziladi.

11. Dastlabki o'rganish Xizmat tekshiruvi hisoblanmaydi.

12. Basharti, dastlabki o'rganish natijalari bo'yicha Kombinatda huquqbuzarlik sodir etilgani, sodir etilishi mumkin bo'lgani yoxud sodir etilayotganini tahmin qilishga yetarli darajada asoslar borligi aniqlansa, bunday holatda Komplaens-nazorat xizmatining rahbari Boshqaruv raisi nomiga yozma shaklda xizmat xabarini kiritadi.

13. Basharti, Xizmat tekshiruvi Boshqaruv a'zosi, ijro apparati rahbari yoxud tarkibiy bo'linma rahbari yoxud uning o'rinbosarlariga nisbatan tayinlanadigan bo'lsa, xizmat xabari Boshqaruv raisi hamda Boshqaruv raisining xavfsizlik bo'yicha o'rinbosari nomiga yoziladi.

14. Basharti, Xizmat tekshiruvi Boshqaruv raisining o'rinbosarlaridan biriga nisbatan tayinlanishi lozim bo'lsa, (O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlarida ko'zda tutilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar, shu jumladan manfaatlar to'qnashuvini yashirishga oid holatlarni sodir etganlikda gumon qilingan hollarda) u holda tegishli ma'lumotlar Komplaens-nazorat xizmati tomonidan o'rnatilgan tartibda bir vaqtning o'zida Boshqaruv raisiga, Boshqaruv raisining xavfsizlik bo'yicha o'rinbosariga hamda huquqni muhofaza qilish organlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli davlat organiga zudlik bilan yuboriladi.

15. Boshqaruv raisi xizmat xabari olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kunida Xizmat tekshiruvi o'tkazish yoxud o'tkazmaslik to'g'risida qaror (buyruq yoxud farmoyish) qabul qiladi.

16. Boshqaruv raisi xizmat xabariga asosan tegishli materiallarni O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlariga Xizmat tekshiruvi o'tkazmasdan turib taqdim etish to'g'risidagi qarorni qabul qilish huquqiga ega.

17. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish bilan bir vaqtda Boshqaruv raisi Xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha Ishchi guruh rahbarini tayinlaydi va unga Ishchi guruh tarkibini shakllantirish hamda xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida buyruq loyihasini tayyorlash vazifasini topshiradi.

18. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi buyruqda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

Xizmat tekshiruvi predmeti (mavzusi);

Xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga asos bo'lgan sabab yoxud holat;

Xizmat tekshiruvi o'tkazishga sabab bo'lgan huquqbuzarlikni sodir etishda gumonlanayotgan xodim(lar), u (lar)ning F.I.SH. va lavozimi (bo'linma, xizmat, boshqarma, departament nomi, tabel raqami) basharti, ma'lum bo'lsa;

Xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan Ishchi guruhning shaxsiy tarkibi (xolis va betaraf bo'lgan eng kamida 5 kishidan iborat tarkibda, toq sonli bo'lishi lozim);

Ishchi guruh a'zolari va rahbarining huquq va majburiyatlari;

Xizmat tekshiruvini o'tkazish va natijalarni taqdim etish muddati.

19. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi buyruq loyihasi Kombinat Boshqaruv raisiga imzolash uchun Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida kiritilishi lozim.

### **III. Xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha Ishchi guruh tuzish**

20. Xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha Ishchi guruh tarkibi, Ishchi guruh rahbarining taklifiga asosan tuziladi, qoida tariqasida unga Ijro apparatidagi bo'linmalarning birinchi rahbarlari yoxud o'rinbosarlari, xodimlar bilan ishlash xizmati rahbari, Yuridik departament rahbari yoxud uning o'rinbosari, Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'linmasi rahbari hamda lavozim majburiyati Xizmat tekshiruvi predmeti bo'lgan yoxud shunga yaqin bo'lgan boshqa bo'linmalarning rahbar xodimlari kiritilishi mumkin.

21. Kombinat tarkibiy bo'linmalari tomonidan tashkil etilgan Ishchi guruhlar tarkibiga zaruratga ko'ra Kombinat ijro apparati xodimlari ham kiritilishi mumkin.

22. Quyidagi xodimlarni Ishchi guruh tarkibiga kiritishga yo'l qo'yilmaydi:

Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimning yaqin qarindoshlari;

Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimning bevosita bo'ysinuvidagi xodimlar;

Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimning bevosita rahbari (Kombinat tarkibiy bo'linmasining rahbari bundan mustasno);

Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan yo'nalishga rahbarlik qilayotgan Boshqaruv raisining o'rinbosari, ijro apparatidagi bo'linma rahbari va o'rinbosarlari yoxud tarkibidagi bo'linma rahbari va uning o'rinbosarlari;

tekshiruv natijasidan bevosita yoxud bilvosita manfaatdor ekanligi haqida gumon (masalan: birga ta'lim olgan, bir hududdan bo'lgan, ishqiy munosabatlarda, xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim bilan oshkora ziddiyatga ega bo'lgan va hok.) bo'lgan boshqa xodimlar ham Ishchi guruh tarkibiga kiritilmaydi.

23. Ishchi guruhning shaxsiy tarkibini shakllantirish uchun mas'uliyat Ishchi guruh rahbarining zimmasiga yuklatiladi. U mazkur Reglamentning 22-bandida ko'rsatilgan potensial manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi bo'yicha guruh a'zolarini tekshirishi shart.

#### **IV. Xizmat tekshiruvini o'tkazish**

24. Xizmat tekshiruvi tegishli buyruq qabul qilingan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkazilishi shart.

25. Basharti, Xizmat tekshiruvi jarayonida ushbu Reglamentning 24-bandida ko'rsatilgan muddatning uzayishiga olib keladigan qo'shimcha tartib-taomillar (shu jumladan, xodimlar va boshqa shaxslar orasida qo'shimcha so'rov va o'rganishlar o'tkazish) o'tkazilishi, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilsa, u holda Ishchi guruh rahbari bu haqda ma'lum bo'lishi bilanoq majburiy tartibda Boshqaruv raisini xabardor qiladi. Bunday holatlarda, Xizmat tekshiruvini o'tkazish muddatlari Boshqaruv raisining buyrug'i asosida qo'shimcha ravishda 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

26. Ustidan Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik davri, mehnat to'g'risidagi qonunchilik hamda boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilgan ta'tillarda bo'lgan vaqti, uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan boshqa davrlar (ta'til, kasallik, xizmat safari va boshqalar), tekshiruvni o'tkazish muddatiga kiritilmaydi, bunday holatlarda tekshiruv o'tkazish vaqtincha to'xtatiladi hamda tekshiruv muddati avtomatik tarzda ushbu xodimning ishda bo'lmagan davriga uzaytiriladi.

Basharti, xodim 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq davrda ishda bo'lmagan yoxud Xizmat tekshiruvida ishtirok etishdan qasddan boshqa shaklda bosh tortgan holatda, Xizmat tekshiruvi Kombinat boshqaruv raisi bilan kelishilgan holda tekshirilayotgan xodimning (xodimlarning) ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin va ushbu holat Xizmat tekshiruvi hujjatlarida (natijalarida) alohida qayd etiladi.

27. Ustidan Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimga, Ishchi guruh rahbarining tavsiyasiga asosan Boshqaruv raisining buyrug'i bilan ma'lum bir axborot tizimlari, muayyan hujjatlardan foydalanishga cheklov qo'yilishi mumkin. Ushbu holatda qabul qilingan buyruq haqida, ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim, o'sha kuniyoq buyruqqa imzo chektirilgan holda tanishtiriladi. Buyruq bilan tanishish rad etilgan taqdirda esa, bu haqda Ishchi guruh rahbari tomonidan dalolatnoma tuziladi.

28. Xodimga nisbatan muayyan axborot tizimlaridan va hujjatlardan foydalanishga cheklov qo'yishga oid buyruq Xizmat tekshiruvi o'tkazishning muddatidan ortiq bo'lmasligi kerak.

#### **V. Xizmat tekshiruvini o'tkazish davomida o'rganiladigan ma'lumotlar**

29. Xizmat tekshiruvini o'tkazish davomida Ishchi guruh huquqbuzarlikka aloqador bo'lgan ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish hamda hujjatlashtirish ishlarini amalga oshiradi, shu jumladan:

huquqbuzarlik, uni sodir etish sabablari nimada aks etadi;

Qoidalari buzilgan O'zbekiston Respublikasi qonunchilik normalari hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlari talab va qoidalari;

Huquqbuzarlikni sodir etish vaqti, joyi, usuli, shakli;

Huquqbuzarlikni sodir etishda qatnashgan deb gumon qilingan shaxslar doirasi (Kombinat va uning tizimi xodimlari bilan bir qatorda uchinchi shaxslar ham);

huquqbuzarlikning og'irlik darajasi;

Kombinat va uning tizimiga yetkazilgan moddiy va nomoddiy, obro'-e'tibor xarakteridagi zararining ko'rinishi va ko'lami;

Huquqbuzarlikni sodir etishga aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlar aniqlanadi.

30. Xizmat tekshiruvini o'tkazish davomida olinadigan ma'lumotlar manbasi quyidagilar bo'lishi mumkin:

ustidan Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim, Kombinatning boshqa xodimlari, uchinchi shaxslarning yozma yoxud og'zaki tushuntirishlari;

tasdiqlovchi hujjatlar (yozma va elektron shaklda);

internet tarmog'i hamda ijtimoiy tarmoqlarda ommaviy tarzda joylangan axborot manbalarining ma'lumotlari;

audioyozuvlar, foto- va videoqaydlar;

huquqbuzarlikka aloqador bo'lgan boshqa hujjat va materiallar.

31. Yuqorida sanab o'tilgan barcha, shu jumladan maxfiy ma'lumotlar Ishchi guruh tomonidan Kombinatda qabul qilingan barcha tartib-taomillarni qo'llagan holda, shuningdek, Kombinatning ichki normativ hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq olinishi va foydalanilishi kerak.

32. Kombinat xodimlari yoxud jalb etilgan boshqa shaxslar bilan o'tkazilgan suhbat jarayoni majburiy tartibda audio yoxud video qayd qilinishi, suhbat to'g'risida bayonnoma tuzilishi lozim (audio yoxud video qayd Xizmat tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yiladi).

Audio va video qaydni amalga oshirishdan oldin suhbat o'tkazilayotgan shaxsning roziligi olinadi. Rozilik berilmagan taqdirda audio va video qaydni amalga oshiruvchi uskunalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

33. Ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan yoxud boshqa xodim suhbat yoxud tushuntirish berishdan bosh tortgan taqdirda ushbu Reglamentning 1-ilovasida ko'rsatilgan shaklga muvofiq dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

34. Ishchi guruh rahbari mazkur xodimni dalolatnoma bilan tanishganligini tasdiqlash uchun unga imzo qo'yishi zarurligi to'g'risida xabardor qiladi. Basharti, xodim hujjatga imzo qo'yishdan bosh tortsa, u holda Ishchi guruh rahbari hujjatga tegishli belgi qo'yadi.

35. Ustidan tekshiruv o'tkazilayotgan xodim tomonidan dalolatnomaga (yoxud boshqa hujjatlarga) imzo qo'ymaslik unga nisbatan tegishli javobgarlik chorasini qo'llashdan ozod qilmaydi.

## **VI. Ishchi guruh rahbari va a'zolarining huquq va majburiyatlari**

36. Ishchi guruh rahbari Xizmat tekshiruvining samaradorligi va natijadorligi, shuningdek, Ishchi guruh a'zolarining mazkur Reglament bilan belgilangan talablarga amal qilishlari uchun mas'ul bo'ladi.

37. Xizmat tekshiruvi o'tkazish davomida Ishchi guruh rahbari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Xizmat tekshiruvi o'tkazishning yo'nalishlarini, amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilaydi, Ishchi guruh a'zolari oldiga bajarilishi majburiy bo'lgan vazifalar qo'yadi, bajarish muddatlarini belgilaydi, topshiriqlar beradi;

Ishchi guruh tomonidan Xizmat tekshiruvi o'tkazilishini tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi;

Ishchi guruh tomonidan Xizmat tekshiruvining ushbu Reglamentga muvofiq ravishda o'tkazilishini nazorat qiladi;

suhbat o'tkazish, tushuntirish talab qilib olish zarur bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzadi;

Xizmat tekshiruvini xolis va samarali o'tkazish uchun zarur bo'lgan choralar ko'rilishini ta'minlaydi (masalan, Kombinatdagi ma'lumotlarni yo'q qilish jarayonlarini to'xtatib turishni talab qiladi, tegishli xodimlarga nisbatan tekshiruv o'tkazilayotgan davrda ma'lum bir axborot tizimlari, muayyan hujjatlardan foydalanishga cheklov qo'yishni tavsiya qiladi, zaruriyat tug'ilganda tekshiruvni o'tkazishning maksimal muddatlarini uzaytirish bo'yicha taklif tayyorlaydi va boshqalar);

Boshqaruv raisiga Xizmat tekshiruvi natijalarining taqdim etilishini ta'minlaydi.

38. Xizmat tekshiruvini o'tkazishda Ishchi guruh rahbari va a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Kombinat xodimlari (shu jumladan, Boshqaruv raisining o'rinbosarlari bilan ham) bilan suhbat o'tkazish, tushuntirish xati olish, tekshiruv mohiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslar, shuningdek, tashqi ekspertlarni ularning roziligi bilan Xizmat tekshiruvi jarayoniga taklif qilish. Uchinchi shaxslar va tashqi ekspertlarni jalb qilish masalasi Boshqaruv raisi bilan oldindan kelishilishi shart;



suhbatni yozma shaklda yoxud zarurat tug'ilganda tushuntirish berayotgan shaxsning roziligi bilan audio- va videoqayd etuvchi uskunalar qo'llash bilan qayd etishni amalga oshirish;

Kombinat xodimlaridan (shu jumladan, Boshqaruv raisining o'rinbosarlari bilan ham) xizmat tekshiruvi predmetiga aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan hujjat va materiallarni hech bir moneliksiz va to'g'ridan to'g'ri talab qilish va olish;

Kombinat hamda tarkibiy bo'linmalar mol-mulklarining bus-butunligini xatlov va taftishdan o'tkazish;

O'tkazilayotgan xizmat tekshiruvi doirasida o'z lavozim majburiyatlarini bajarish uchun foto- va videoqaydlarni amalga oshirish.

### 39. Ishchi guruh rahbari va a'zolarining majburiyatlari:

Xizmat tekshiruvini o'tkazishda ushbu Reglament, Kombinatning boshqa ichki normativ hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga amal qilish;

Xizmat tekshiruvi mohiyati bo'yicha mavjud barcha material va hujjatlarni to'plash;

Xizmat tekshiruvi maqsadlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning (hujjatlar, elektron ma'lumotlar va boshqalarning) butligini saqlash bo'yicha choralar ko'rish;

mazkur Reglament, Kombinatning boshqa ichki normativ hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlardan tashqari xizmat tekshiruvi o'tkazish doirasida olingan ma'lumotlarning mutlaqo maxfiylikni saqlash va oshkor qilmaslik;

mazkur Reglament talablariga muvofiq ravishda tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish, shu jumladan, javobgarlik choralari, shuningdek, huquqbuzarlik sabablari va huquqbuzarlikni sodir etishga turtki bo'lgan shartlarni bartaraf qilish imkonini beradigan choralarni qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

## **VII. Ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodimlarning huquqlari**

### 40. Ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim quyidagi huquqlarga ega:

Xizmat tekshiruvi o'tkazish fakti to'g'risida xabardor bo'lish;

huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va sharoitlari, xizmat tekshiruvining borishi haqida o'z fikr-mulohazalarini ifodalash huquqi bilan yozma va og'zaki tushuntirishlar berish, shuningdek, uning tushuntirishlarini tasdiqlashi mumkin bo'lgan isbot-dalillarni taqdim etish;

Tushuntirishlar taqdim etishdan bosh tortish – bu holda ushbu Reglamentning 33-bandida ko'zda tutilgan dalolatnoma tuziladi;

o'zi tomonidan taqdim etilgan hujjat va materiallarni, o'tkazilayotgan xizmat tekshiruv materiallariga aloqador bo'lgan hujjat va materiallarga qo'shib qo'yishni talab qilish;

Xizmat tekshiruv tugaganligi to'g'risidagi xabarni olish va bunday xabar olingandan keyin 2 (ikki) ish kun ichida Xizmat tekshiruv ma'lumotnomasining unga tegishli qismi bilan u tasdiqlanishiga qadar tanishish (u foydalanishi va o'z mulohazalarini qo'shib qo'yish huquqiga ega bo'lmagan maxfiy axborotdan tashqari);

Xizmat tekshiruv natijalaridan, shu jumladan, Ishchi guruh tomonidan tekshiruv yakunlari bo'yicha taklif etilgan javobgarlik chorasidan norozi bo'lgan taqdirda ushbu qaror ustidan Boshqaruv raisiga yoxud yuqori turuvchi idoralarga shikoyat qilish.

### **VIII. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinadigan boshqa xodimlarning huquq va majburiyatlari**

41. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinadigan xodimlar Xizmat tekshiruvini o'tkazishda Ishchi guruhga har tomonlama ko'mak berish, shu jumladan, xizmat tekshiruv bo'yicha talab qilingan tushuntirishlar, ma'lumot va hujjatlarni taqdim qilishlari, Ishchi guruh a'zolari tomonidan tashkil etiladigan suhbatlarda shaxsan ishtirok etishlari shart.

42. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinayotgan xodimlar ularning tekshiruvda ishtirok etishlari munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumotlarni Ishchi guruh rahbarining ruxsatisiz oshkor qilishga haqli emaslar.

43. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinayotgan xodimlar quyidagi huquqlarga ega:  
o'zlari va yaqin qarindoshlarga qarshi guvohlik bermaslik;

Boshqaruv raisiga, Ishchi guruh rahbari va a'zolarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish;

O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega.

### **IX. Xizmat tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish**

44. Xizmat tekshiruv natijalari bo'yicha Ishchi guruh rahbari, uning barcha a'zolari, xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan xodim tomonidan imzolanadigan ma'lumotnoma tuziladi.

45. Ma'lumotnoma mazkur Reglamentning 2-ilovasidagi shaklga muvofiq tuzilib, to'rt qismdan, ya'ni kirish, bayon, xulosa va taklif qismidan iborat bo'ladi.

46. Ma'lumotnoma yoxud uning alohida bandlaridan norozi bo'lgan, Ishchi guruh a'zosi shuningdek ustidan Xizmat tekshiruv o'tkazilayotgan xodim yozma ravishda rasmiylashtirilgan va ishga tirkalgan holda alohida fikrda ekanligini bildirgan belgi bilan ma'lumotnomaga imzo qo'yishi mumkin.

47. Ustidan Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan xodim ma'lumotnomaga imzo qo'yishdan bosh tortgan taqdirda dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Ushbu dalolatnomaga Ishchi guruh a'zolaridan tashqari, Xizmat tekshiruvi natijalaridan manfaatdor bo'lmagan kamida ikki nafar xolis shaxslar imzo qo'yishi lozim.

48. Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi ma'lumotnomani o'rganib chiqish natijalariga ko'ra, Boshqaruv raisi quyidagi qarorlardan birini qabul qilishi mumkin:

huquqbuzarlik to'g'risidagi ma'lumot tasdiqlamaganligi munosabati bilan Xizmat tekshiruvini to'xtatish;

sabablar (asoslar) va muddatlari ko'rsatilgan holda Xizmat tekshiruvi materiallarini qo'shimcha ravishda o'rganish uchun, zarurat tug'ilganda esa – Ishchi guruh tarkibini o'zgartirish uchun qaytarish;

aybdor xodimni intizomiy javobgarlikka tortish;

xodimga nisbatan ogohlantirish, profilaktik xarakterdagi (rotatsiya qilish, lavozimni pasaytirish, moddiy rag'batlantirish miqdorlarini kamaytirish, ishdan bo'shatish kabi) boshqa choralarini qo'llash;

kelgusida shu kabi huquqbuzarliklar sodir bo'lishining oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni tasdiqlash;

huquqbuzarlik yoxud jinoyat alomatlari tasdiqlangan holatlarda, tegishli materiallarni zudlik bilan huquqni muhofaza qilish organlariga hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli davlat organiga taqdim etish to'g'risida Komplaens-nazorat xizmatiga yozma (fishka) ko'rsatma berish.

49. Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi ma'lumotnomaning birinchi nusxasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Kombinatning ichki nazorat tuzilmasiga hamda ikkinchi nusxasi Kombinatning xodimlar bilan ishlash xizmatiga taqdim etiladi.

50. Xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga sabab bo'lgan ma'lumot haqida xabar bergan shaxslar huquqbuzarlik tasdiqlangani yoxud tasdiqlanmagani, shuningdek ko'rilgan choralar haqida umumiy tarzda xabardor qilinadi.

## **X. Xizmat tekshiruviga oid hujjatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibi**

51. Xizmat tekshiruvida ishtirok etayotgan (jalb qilingan) Kombinat xodimlari tekshiruv davomida ularga ma'lum bo'lib qolgan ma'lumot va axborotning maxfiyligini ta'minlaydilar (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

52. O'tkazilgan Xizmat tekshiruvi doirasidagi ma'lumotlardan vakolati doirasida foydalanish huquqiga faqat Boshqaruv raisi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi hamda Ishchi guruh a'zolari (mazkur Ishchi guruh a'zosi ishtirok etgan tekshiruvlar doirasida) ega.

53. O‘z lavozim (mansab) vazifalarini bajarish maqsadida, o‘tkazilgan Xizmat tekshiruvlari haqidagi axborotdan foydalanishi zarur bo‘lgan xodimlar, ushbu axborotdan foydalanish uchun Boshqaruv raisiga nomiga xizmat xati kiritgan holda Boshqaruv raisining yozma shakldagi (fishka) ruxsatini olishi lozim.

54. Xizmat tekshiruviga oid materiallar Ishchi guruh rahbari tomonidan alohida yig‘majildga raqamlangan va tikilgan holda Komplaens-nazorat xizmatiga hamda nusxasi Xodimlar bilan ishlash xizmatiga saqlash uchun topshiriladi.

55. Komplaens-nazorat xizmati, shuningdek xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish vazifasi yuklatilgan bo‘linmalar mazkur Reglamentning 3-ilovasidagi shaklga muvofiq Xizmat tekshiruvlari elektron reestrini yuritilishini ta‘minlaydilar hamda barcha o‘tkazilgan Xizmat tekshiruvlari elektron reestrni hamda tasdiqlovchi hujjatlarni har chorak yakuni bilan hisobot davridan keyingi oyning beshinchi sanasiga qadar Komplaens-nazorat xizmatiga taqdim etishlari shart.

56. Xizmat tekshiruviga oid barcha hujjatlar, basharti, boshqacha tartib O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan bo‘lmasa, tasdiqlangan sanadan boshlab 10 (o‘n) yil davomida saqlanishi lozim.

## **XI. Yakuniy qoidalar**

57. Ushbu Reglament O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgargan taqdirda yoxud xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish bilan bog‘liq tartib-taomillarni takomillashtirish zarurati tug‘ilganda qayta ko‘rib chiqilishi va o‘zgartirilishi lozim.

58. Ushbu Reglament qoidalarini buzishda aybdor deb topilgan xodimlar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartib va asoslarda intizomiy va boshqa shakldagi javobgarlikka tortiladilar.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ  
xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy  
xatti-harakatlar  
va xizmatdagi odob-ahloq qoidalarini buzish  
holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini  
o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Reglamentga  
1-ilova

## DALOLATNOMA

«\_\_\_» \_\_\_\_\_ 202\_\_ yil.

Biz, quyida imzo chekuvchilar,

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH., lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH., lavozimi)

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH., lavozimi)

Xodim (F.I.SH., lavozimi) 202\_\_ yilning «\_\_\_» «\_\_\_\_\_» sanasida

\_\_\_\_\_,dan iborat bo‘lgan huquqbuzarlik sodir etilganligi to‘g‘risida yozma tushuntirish berish taklif etilgan bo‘lib, u yozma tushuntirish berishni rad etgani to‘g‘risida ushbu dalolatnomani tuzdik.

Yozma tushuntirish berishni rad etganligi sabablarini xodim (F.I.SH. lavozimi) quyidagilar bilan izohladi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
(tushuntirish berishni rad etganlik sabablari erkin shaklda bayon etilsin).

Dalolotnoma tuzgan shaxslar imzosi:

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH.)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH.)

Dalolotnoma bilan tanishdim\*: \_\_\_\_\_  
(F.I.SH., lavozim, sana, imzo)

Dalolotnomaga imzo qo'yishdan bosh tortsa, Ishchi guruh rahbari «imzolashdan bosh tortdi» yozuvini kiritib, o'zi imzo qo'yadi.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ xodimlari  
tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar  
va xizmatdagi odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari  
yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi  
to‘g‘risida”gi Reglamentga  
2-ilova

**Xizmat tekshiruvi natijalari to‘g‘risida ma’lumotnoma**  
\_\_\_\_-son

1. **Asos:** Kombinat Boshqaruvi raisining buyrug‘i (sana va raqami)

2. Ishchi guruh tarkibi:

Ishchi guruh rahbari \_\_\_\_\_  
(F.I.SH., lavozim)

Ishchi guruh a‘zolari \_\_\_\_\_  
(F.I.SH., lavozim)

3. Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan muddat: \_\_\_\_\_

4. Tekshiruv o‘tkazish uchun asoslar (kelib tushgan xabarning qisqacha mazmuni):

---

5. Bayon qismi (xizmat tekshiruvida aniqlangan faktlar):  
huquqbuzarlik sodir bo‘lganmi va u nimalarda ifodalangan;  
huquqbuzarlik sodir etilgan joyi, vaqti, usuli va huquqbuzarlikni sodir etishning  
boshqa tafsilotlari;

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodim(lar)ning ma’lumotlari (F.I.SH., lavozimi,  
(tarkibiy bo‘linma nomi, tabel raqami), mehnat shartnomasi tuzilgan sana, ushbu xodimga  
nisbatan Xizmat tekshiruvi avval ham o‘tkazilganmi?);

huquqbuzarlikni sodir etishga aloqador bo‘lgan shaxslar doirasi;  
huquqbuzarlikni sodir etish maqsadlari va sabablari;  
huquqbuzarlikni sodir etishga turtki bo‘lgan sabab va shartlar;  
muayyan xodimning aybdorligini tasdiqlovchi yoxud uning aybsizligiga guvohlik  
beruvchi to‘plangan ma’lumotlar tahlili;

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodimning o‘z himoyasi uchun keltirgan dalillari,  
ularni tekshirish natijalari.

6. Xulosa va takliflar:

a) xulosa qismida:

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs(lar)ning harakat(lar)ida (harakatsizligida)  
huquqbuzarlik mavjud yoxud yo‘qligi to‘g‘risida xulosa;

huquqbuzarlik fakti sodir etilgan bo‘lsa, talablari buzilgan O‘zbekiston Respublikasi  
qonunchiligining aniq normasi yoxud Kombinatning ichki normativ hujjatlari nomi, sanasi  
va buzilgan qoida mazmuni;

huquqbuzarlik sodir etish natijasida yetkazilgan zarar xarakteri va ko'lami (basharti, mavjud bo'lsa);

b) taklif qismida

aybdor shaxs (lar)ni javobgarlikka tortish bo'yicha takliflar;

huquqbuzarlik sodir etishga olib keladigan sabab va shartlarni bartaraf qilishga qaratilgan tavsiyalar;

Xizmat tekshiruvi materiallarini huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etish zarurati.

Ishchi guruh a'zolari imzolari:

Ma'lumotnoma bilan tanishdim\*:

\_\_\_\_\_  
(F.I.SH., lavozimi, tabel raqami)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(sana)

\* Ma'lumotnomaga imzo qo'yishdan bosh tortsa, Ishchi guruh rahbari «imzolashdan bosh tortdi» mazmunidagi yozuvini kiritib, o'zi imzo qo'yadi.



